Toshkent davlat yuridik universiteti
kengashining
2022-yil 3-fevraldagi
4 -son majlis bayonnomasiga
2-ilova

"TASDIQLAYMAN"
Toshkent davlat yuridik universiteti
rektori
A.Tashkulov
_______________

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi

**Toshkent davlat yuridik universiteti**

# TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETINING 2021/2022 O'QUV YILI IKKINCHI YARMI UCHUN ISH REJASI

Toshkent – 2022

| № | Tadbirlar nomi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar* |
|---|---|---|---|
| **I. O'quv va o'quv-uslubiy ishlar** | | | |
| 1. | Sifat guruhi tomonidan 2021/2022 o'quv yili bahorgi semestrida dars mashg'ulotlari o'tkaziladigan fanlarning kontentlari yuzasidan tahliliy ma'lumotlar tayyorlash va universitet rahbariyatiga kiritish. | 2022 yil fevral-mart | I.Rustambekov, **B.Musayev,** **O'quv-uslubiy boshqarma** |
| 2. | Kuzgi va bahorgi semestrlar bo'yicha talabalar o'zlashtirish ko'rsatkichlarini tahlil qilish va universitet Kengashiga ma'lumot hamda taklif kiritish. | 2022 yil mart va iyul | I.Rustambekov, **O'quv-uslubiy boshqarma, fakultet dekanlari** |
| 3. | Universitetning akademik halollik talablarini va ularni buzgan talaba yoki xodimga belgilangan intizomiy jazo choralarini qayta ko'rib chiqib, ularga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish yuzasidan taklif tayyorlash. | 2022 yil mart-aprel | I.Rustambekov, **O'quv-uslubiy boshqarma** |
| 4. | Talabalarda motivatsiyani kuchaytirish va yuqori ko'rsatkichlar bilan tahsil olayotgan talabalarni rag'batlantirish maqsadida 2021/2022 o'quv yili kuzgi semestri bo'yicha talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari asosida TOP 10, 30, 50 ro'yxatlarini tayyorlash va ommalashtirish. | 2022 yil mart | I.Rustambekov, **O'quv-uslubiy boshqarma, fakultet dekanlari** |
| 5. | 2021/2022 o'quv yili o'quv-uslubiy faoliyat natijalari bo'yicha hisobotlarni tayyorlash, tahlil qilish hamda umumlashma ma'lumotlarni va natijadorlikni oshirish bo'yicha takliflarni universitet Kengashiga kiritish. | 2022 yil may-iyun | I.Rustambekov, **O'quv-uslubiy boshqarma**, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 6. | Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar universitetlari, shu jumladan xalqaro reytinglarda TOP-100da bo‘lgan universitetlar o‘quv reja va dasturlarini o‘rganish hamda ular asosida universitet o‘quv reja va dasturlarini qayta ko‘rib chiqish. | 2022 yil may-iyun | I.Rustambekov, O‘quv-uslubiy boshqarma, **fakultet dekanlari**, **kafedra mudirlari** |
| 7. | O‘quv jarayonlarini boshqarish elektron tizimini ishga tushirish, jumladan ta’lim dasturi katalogi, talabalarning kredit olish traektoriyasi, mashg‘ulot jadvalini shakllantirish, talabalar bilimini baholash, talabalar reytingini shakllantirish, talabalar davomatini to‘liq raqamlashtirish. | 2022 yil iyun-iyul | I.Rustambekov, **O‘quv-uslubiy boshqarma, A.Karimov** |
| 8. | Talabalarga xizmat ko‘rsatish mobil ilovasini ishlab chiqish va ishga tushirish. | 2022 yil iyun-iyul | I.Rustambekov, **S.Mamanazarov, A.Karimov** |
| **II. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar** | | | |
| 9. | “TSUL Court” namunaviy sud protsesslari turnirini o‘tkazish. | 2022 yil fevral-may | A.Xashimhonov, **Sh.Po‘lotov, fakultet dekanlari** |
| 10. | Talabalar o‘rtasida “Zukko yurist” turnirini o‘tkazish. | 2022 yil mart-may | A.Xashimhonov, **Sh.Po‘lotov, fakultet dekanlari** |
| 11. | Talabalarning notiqlik mahoratlarini oshirish, ularda bahsga kirishish va erkin fikr bildirish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida universitetda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) modeli musobaqasini yuqori saviyada tashkil etish. | 2022-yil aprel | A.Xashimhonov, **Sh.Po‘lotov, fakultet dekanlari** |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 12. | Talabalarning aqliy qobiliyati, fikrlashi va dunyoqarashini rivojlantirish, islohotlarga daxldorlik hissini oshirishga qaratilgan “Intellektual loyihalar haftaligini” tashkil etish va o‘tkazish. | 2022 yil aprel | A.Xashimhonov, **Sh.Po‘lotov, fakultet dekanlari** |
| 13. | Talabalarda yangi qonun loyihalarini ishlab chiqish, qonunchilik texnikasini o‘rganish, parlament faoliyati bilan yaqindan tanishish, huquqiy va siyosiy olgan bilimlarini amaliyot bilan to‘ldirish hamda tanqidiy-tahliliy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan “Parlament modeli” ijtimoiy-intellektual loyihasini o‘tkazish. | 2022 yil aprel | A.Xashimhonov, **Sh.Po‘lotov, fakultet dekanlari** |
| 14. | Iqtidorli talabalarni aniqlash hamda ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Islohotlar bilimdoni” ko‘rik-tanlovini tashkil etish. | 2022 yil may | A.Xashimhonov, **Sh.Po‘lotov, fakultet dekanlari** |
| 15. | Faol va iqtidorli talabalarni rag‘batlantirish, mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish maqsadida “Talabalar yozgi lageri” loyihasini amalga oshirish. | 2022-yil iyul-avgust | A.Xashimhonov, **Sh.Po‘lotov, fakultet dekanlari** |
| **III. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar yo‘nalishi** | | | |
| 16. | Universitet huzuridagi Ilmiy kengashlar faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan tahliliy ma’lumotlar tayyorlash. | 2022 yil mart | N.Salayev, **I.Ergashev,** fakultet dekanlari, kafedra mudirlari |
| 17. | Izlanuvchilar faoliyati samaradorligi (natijadorligi) yuzasidan tahliliy ma’lumotlar tayyorlash. | 2022 yil may | N.Salayev, **I.Ergashev,** fakultet dekanlari, kafedra mudirlari |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 18. | Ilmiy-ijtimoiy tarmoqlar (Researchgate, Google Scholar, Linkedin va b.)dagi profillar bilan faol ishlash bo‘yicha turkum seminar –treninglar tashkil etish. | 2022 yil mart-aprel | N.Salayev, **I.Ergashev**, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari |
| 19. | “TSUL-Researcher” (elektron tadqiqotchi) mobil ilovasini yaratish. | 2022 yil iyun | N.Salayev, **I.Ergashev, fakultet dekanlari,** kafedra mudirlari |
| 20. | “Eng yaxshi monografiya muallifi”, “Eng yaxshi ilmiy maqola muallifi” va “Eng yaxshi innovatsion loyiha” kabi nominatsiyalar bo‘yicha tanlov o‘tkazish. | 2022 yil iyun | N.Salayev, **I.Ergashev, fakultet dekanlari**, kafedra mudirlari |
| 21. | “LegalTech” laboratoriyasi huzurida startap loyihalarni inkubatsiya va akselleratsiya jarayonlarini ta’minlovchi biznes treninglarni o‘tkazish. | 2022 yil fevral- iyun | N.Salayev, **S.Latipov,** fakultet dekanlari, kafedra mudirlari |
| 22. | Huquqni qo‘llash amaliyotida mavjud bo‘lgan muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar bazasini o‘zida aks ettirgan maxsus platforma faoliyatini yo‘lga qo‘yish. | 2022 yil iyun | N.Salayev, **S.Latipov,** fakultet dekanlari, kafedra mudirlari |
| **IV. Xalqaro hamkorlik va uzluksiz ta’lim yo‘nalishi** | | | |
| 23. | Universitetga o‘qishga kirmoqchi bo‘lgan va kirgan xorijiy fuqarolar uchun ma’lumotlar, yangiliklar, anons va daydjestlarni jamlagan I-TSUL mobil ilovasini yaratish. | 2022 yil iyun | D.Umarov, A.Iminov, **A.Karimov, O.Yakubov** |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 24. | Universitetga xorijiy talabalarni jalb etish qamrovini ko‘paytirish maqsadida xorijiy talabalar uchun ingliz va rus tillarida universitet haqida prospektus, flayer va bukletlarni tayyorlash. | 2022 yil iyun | D.Umarov, **J.Xaydarov** **O.Yakubov** |
| 25. | Universitet talabalarini xalqaro darajada bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek tarjiba almashish uchun imkoniyatlar yaratish maqsadida huquq sohasidagi talabalarning xalqaro assotsiatsiyasiga (International Law Students Association – ILSA) a’zo bo‘lish bo‘yicha tashkiliy ishlarni amalga oshirish. | 2022 yil fevral-iyun | D.Umarov, **O.Yakubov** |
| 26. | Buyuk Britaniyaning Kardif universiteti (Cardiff University) va Nyukasl universiteti (Newcastle University), Gruziyaning Kavkaz universiteti (Caucasus University) va Gruziya universiteti (University of Georgia), shuningdek boshqa xorijiy mamlakatlarning yetakchi universitetlari bilan xamkorlik aloqalarini o‘rnatish, anglashuv memorandumlarini imzolash. | 2022 yil mart-aprel | D.Umarov, **O.Yakubov** |
| 27. | Polshaning Gdansk universiteti (University of Gdansk) bilan hamkorlikda universitetda Polsha huquqi markazini hamda Gdansk universitetida O‘zbek huquqi markazini ochish bo‘yicha tashkiliy ishlarni amalga oshirish. | 2022 yil may-avgust | D.Umarov, **O.Yakubov** |
| 28. | Yuridik texnikumlarlar uchun “Elektron yuridik texnikum” innovatsion elektron platformasini ishga tushirish. Bunda:<br>elektron platforma bazasini universitet serveriga joylashtirish;<br>elektron platformani tegishli ma’lumotlar bilan to‘ldirish; | 2022 yil may-avgust | D.Umarov, **A.Karimov,** **D.Alimov** |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | elektron platformadan yuridik texnikumlarni foydalanish imkoniyatini yaratish *(alohida login va parol orqali);*<br>barcha yuridik texnikumlar uchun elektron platformadan foydalanish yuzasidan turkum seminar-treninglar tashkil etish. | | |
| 29. | Yuridik texnikumlarda masofaviy ta'limni joriy etish yuzasidan masofaviy ta'lim platformasi (http://distant.texnikum.tsul.uz) ma'lumotlarini qayta ko'rib chiqish va yangilash. Bunda, har bir fan bo'yicha ta'lim kontentlari *(ma'ruza matnlari, videodarslar, taqdimotlar, kazuslar, testlar va foydlanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar)* joylashtirish va yuridik texnikumlarning pedagoglari va o'quchilari uchun ushbu tizimdan foydalanishlari uchun tegishli sharoitlar yaratish *(alohida login pa parol orqali).* | 2022 yil<br>fevral–avgust | D.Umarov,<br>**D.Rajabov,**<br>**D.Alimov** |
| **V. Moliya-iqtisod ishlari** | | | |
| 30. | 3-son talabalar turar joyi binosiga (Wi-Fi) tarmog'ini o'rnatish, montaj qilish ishlarini tashkil etish. | 2022 yil<br>fevral-mart | A.Iminov,<br>**A.Karimov,**<br>**I.Bozorov** |
| 31. | 3-son talabalar turar joyi binosiga yong'in xafvsizligi signalizatsiyasini o'rnatish ishlarini tashkil etish. | 2022 yil<br>fevral-mart | A.Iminov,<br>**I.Bozorov**,<br>M.Davakeyev |
| 32. | Universitet o'quv binolaridagi yaroqsiz holga kelgan yoritgich chiroq (Lampa LED)larini bosqichma-bosqich yangisiga almashtirish ishlarini tashkil etish. | 2022 yil<br>mart-aprel | A.Iminov,<br>**I.Bozorov** |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 33. | Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 59-uy manzilida joylashgan 900 ta o‘rinli 4-o‘quv binosini joriy ta’mirlash ishlarini yakunlash, mebellar bilan jihozlash. | 2022 yil fevral-mart | A.Iminov, **I.Bozorov** |
| **VI. Tashkiliy-nazorat ishlari** | | | |
| 34. | Universitetning innovatsion faoliyatini o`rganish va natijasi bo`yicha universitet Kengashida axborot berish. | 2022 yil mart | **D.Mahkamov,** E.Xosilov |
| 35. | Universitetning Yuridik klinika faoliyatini o‘rganish va natijasi bo`yicha universitet Kengashida axborot berish. | 2022 yil aprel | **D.Mahkamov,** E.Xosilov |
| 36. | Toshkent davlat yuridik universiteti professor-o‘qituvchilarining KPI ko‘rsatkichlarini aniqlash mezonlarini qo‘llash va aniqlash metodikasi bo‘yicha seminar-treninglar tashkil qilish. | 2022 yil mart-aprel | **B.Musayev** |
| 37. | Universitetda darsliklar bilan ta’minlanish holatini tahlil qilish va uning natijasi bo‘yicha universitet Kengashida axborot berish. | 2022 yil may | **B.Musayev** |
| 38. | Universitet xodimlarining “MinJust HR” va “VIRTUAL ADLIYA” tizimidan foydalanish ko‘nikmasini oshirib borish bo‘yicha seminar-trening o‘tkazish. | 2022-yil mart, iyun | **Sh.Xamroqulov** |
| 39. | “Universitet press klubi” taqdimotini o'tkazish. | 2022 yil mart | **J.Xaydarov** |
| 40. | Talabalarga xizmat ko‘rsatish markazi bilan hamkorlikda “Bo‘sh ish o‘rinlari yarmarkasi”ni tashkil etish. | 2022 yil may | **J.Xaydarov,** S.Mamanazarov |
| 41. | Universitetning birinchi “Media forumi”ni o‘tkazish. | 2022 yil iyun | **J.Xaydarov** |

***Izoh:** Mas’ullar boshqa ishga o‘tgan taqdirda, ularning lavozimlariga tayinlangan yoxud zimmasiga tegishli vazifalar yuklangan shaxslar mas’ul hisoblanadi.s